

BUXORO VOHASINING SUG'ORILISH TARIXINING ARXEOLOGIK ASOSLARI

Yormatova Dilnoza
Buxoro davlat universiteti talabasi
Naimov Ismat
Ilmiy rahbar:

Buxoro davlat universiteti dotsenti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.11347041>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxoro vohasining irrigatsiya tizimini o'rganishga doir 1960-yillarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar tarixi va ularning natijalari ilmiy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Buxoro vohasi, irrigatsiya tizimi, arxeologik tadqiqotlar, Zarafshon daryosi, Xitraf, Moxondaryo ekspeditsiyasi.

Zarafshon vodiysining, xususan, uning quyi qismiga joylashgan Buxoro vohasining sug'orilish tarixiga bag'ishlangan asarlarining umumiy obzori ustida to'xtar ekanmiz, avvalo shuni qayd qilib o'tish kerakki, bu qadimgi dehqonchilik vohasining sug'orilib obod etilishi tarixiga oid yirik asarlar to hozirgi kungacha nashr etilmagan. Shunday bo'lsa ham, Zarafshon vodiysining sug'orilish tarixi tarixshunoslik fanida qanchalik yoritilganini ko'z oldimizga keltirish uchun hozirgi vaqtida mavjud bo'lgan asarlarning umum obzorini berish maqsadga muvofiqdir.

Buxoro vohasining sug'orilish tarixini har tomonlama keng va chuqur o'rganish arxeologik jihatdan tadqiq etilishi munosabati bilan keyingi yillarda uning tarixi masalalariga bag'ishlangan bir qancha ilmiy maqola va asarlar paydo bo'ldi. Bu borada V. A. Shishkinning «Varaxsha» nomli asari ayniqsa qimmatlidir.¹ Garchi V. A. Shishkinning bu asari bevosita Buxoroning sug'orish tarixiga oid bo'lmasa-da, ammo unda keltirilgan turli davrlarga mansub arxeologik yodgorliklarning obzoridan vohaning o'zlashtirilishining tarixiy dinamikasi namoyon bo'ladi.

Quyi Zarafshonning irrigatsiya tarixi keng ko'lamda Y. G'. G'ulomov tomonidan o'rganildi. Y. G'. G'ulomovning keyingi yillarda to'plagan boy arxeologik Ba etnografik ma'lumotlari hali e'lon qilinmagan bo'lsa-da, har holda Buxoro vohasining sug'orilish tarixi masalalari, uning bir qancha ilmiy tadqiqotlarida talqin etilgan.

1969-yilning kuzida Buxoro viloyati Romitan va Jondor tumanlarining g'arbiy va shimoli-g'arbiy chegarasiga yondashgan qadimgi sug'orilgan yerlarni xaritaga tushirish vaqtida Xitfarning qadimgi qurib qolgan o'zanlari va undan chiqarilgan ko'pdan-ko'p yirik sug'orish kanallarining izlari aniqlandi. Xitfarning qadimgi deltasi hisoblangan bu rayonni mahalliy aholi Urganjiy dashti deb ataydi. Bu dashtda Xitfarning qurib qolgan qadimgi izlari juda yaxshi saqlangan. Aftidan, Xitfar, Xarxo'r — Vobkentdaryoning Zarafshondan ajralib chiqadigan joy nomi bo'lib, bu to'g'rida keyinroq batafsil gapiriladi.

Moxondaryo arxeologiya otryadi qadimgi Xitfar masalasi bilan maxsus shug'ullanib, uning qadimgi tabiiy o'zanining qoldiqlarini qidirib topdi va qadimgi saqosining o'rashgan joyini aniqladi. Hozirgi Romitan kanali Vobkentdaryodan bosh olgan rayonda ikkiga ajralib, ulardan birinchisi shimoli-g'arbga va ikkinchisi janubi-g'arbga yo'nalgan. Birinchi o'zan Qoqishtuvon qishlog'didan shimalroqda hozirgi voha chegarasini kesib o'tib, cho'l bag'riga 10-12 km kirib borgan va keng territoriyaga toshib ko'l va ko'lmaqlar hosil qilgan. Uning quruq

¹Шишкин В. А.. Варахша, М. 1963.

izlari Xo'jazafaron va Xongushar mavzelari o'rtaida juda yaxshi ko'zga tashlanadi. Uning kengligi 75 m va chuqurligi 1,5-2 m ga boradi.

Qadimgi Govxitfarga hozirgi vaqtida «daryo» so'zining qo'shi-lib atalishi ham uning tabiiyligidan darak beradi. Bu borada Y. G'. G'ulomov Xorazmning qadimgi yirik sug'orish arteriyasi — Govxo'ra kanali nomining etimologiyasi ustida so'z yuritar ekan, «irmoq yoki daryo» so'zini anglatuvchi qadimgi terminlar to'g'risida ishonchli fikrni o'rtaqa tashlaydi. «Govxo'ra va Govxitfar» nomlaridagi «gov» old qo'shimchasini u, Urta Osiyoning qadimgi xalqlarida «tarmoq» yoki «daryo»ni anglatgan «o'kuz» terminiga ekvivalent sifatida talqin etadi va «o'kuz» so'ziga bog'lanib kelgan toponimlar singari, Govxo'ra va Govxitfar nomlari ham daryo shoxobi oqqan tomonlardagi joy yoki rayonlarning nomi bilan bog'liq bo'lgan irmoqlarni anglatadi deb, hisoblaydi.² Qadimgi Govxitfarning keyingi nomi Vobkentdaryo ham «Vobkentga tomon oqadigan daryo» deb bekorga aytilmagan, balki Y. G'. G'ulomov tomonidan o'rtaqa tashlangan fikrni anglatuvchi, toponim sifatida vujudga kelgan.³

Xitfarning janubi-g'arba yo'nalgan ikkinchi o'zani esa Qo'rg'oni Romitan shahar xarobasidan 2 km shimoli-g'arbdan o'tib, Bobosimosiy mavzeida voha chegarasini kesib o'tgan va cho'l bag'rige 20-25 km kirib borgan. Shirinquduq mavzeiga 3 km yetmasdan u yana ikkiga ajralib, biri janubga va ikkinchisi avval g'arba so'ngra janubi-g'arba tomon yo'nalgan. Uzanning har ikkalasi ham qadimgi Buxoro hokimlari - buxorxudotlarning qarorgohi bo'lgan Varaxsha yaqinida biri yodgorlikdan 2 km shimoldan, ikkinchisi 2 km sharqdan o'tib, Moxondaryo vodiysi tomon yo'nalgan. Ehtimol u qachonlardir qadim zamonalarda Moxondaryogacha yetib borgandir. Xitfarning qurib qolgan izlari ayniqsa Varaxsha atrofida yaxshi saqlangan. Uning kengligi 40—60 m va chuqurligi 2 m gacha boradi. Varaxshaga eng yaqin suv manbai hisoblangan Shirinquduq ham Xitfarning qadimgi o'zani ichidan kovlangan.



²Абу Бакр Мухаммад ибн Жаъфар Наршахий, Бухоро тарихи, Тошкент. 1966, 35-бет.

³ Гуломов Я. Ф. Хоразмнинг сугорилиш тарихи, Қадимги замонлардан ҳозиргача, Тошкент. 1959, 144-145-бетлар.